

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARHITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI**

**ASHUROVA ZARINA OLIMJONOVNA**

**QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT  
MENEJMENTINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI**

**08.00.13-«Menejment»**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**UDK: 338.24:658.562:338.45:69**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
ЭКОНОМИЧЕСКИМ**

**Content of dissertation abstract of philosophy (PhD) in economic sciences**

**Ashurova Zarina Olimjonovna**

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligi  
.....3

**Ашурова Зарина Алимжоновна**

Эффективность внедрения менеджмента качества в промышленности  
строительных материалов .....27

**Ashurova Zarina Olimjonovna**

Efficiency of the introduction of Quality Management in the building  
materials industry .....51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....56

**OSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI**

**ASHUROVA ZARINA OLIMJONOVNA**

**QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT  
MENEJMENTINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI**

**08.00.13-«Menejment»**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt2044 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

**Mamanazarov Oybek Shomurodovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

**Suyunov Dilmurod Xolmurodovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xasanov Toxir Abdurashidovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «8» 11 kuni soat 16.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (1527 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «22» 10 kuni tarqatildi.  
(2024-yil «21» 10 daqi 3 raqamli restr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor.

**O.D. Djurabayev**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kотиби, i.f.d., dotsent

**R.X. Karlibayeva**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sifat menejmenti tizimini joriy qilish natijaviyligi va samaradorligi masalalari ISO-9000 seriyasidagi standartlardan keng ko‘lamda foydalanish boshlanganidan beri dolzarb bo‘lib kelmoqda. «Dunyo mamlakatlaridagi korxonalarining juda ko‘pchiligi bugungi kunda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan sifat menejmenti tamoyillari bo‘yicha boshqaruv tizimlariga o‘tib bo‘lganlar»<sup>1</sup>. Sifat menejmenti tizimi (SMT) – bu istalgan tarmoqlar, o‘lchamlar va shakllardagi korxonalarda eng ko‘p tarqalgan xalqaro ISO 9001 standartlari bilan mos holda qo‘llash uchun ishlab chiqilgan boshqaruv tizimidir. Sifat menejmentining xalqaro amaliyotiga ko‘ra mazkur tizim mahsulot/xizmatlarning lozim darajadagi sifatiga erishish uchun korxonalar faoliyatining barcha yo‘nalishlari amalga oshiriladigan tuzilmali jarayonlar va elementlarga asoslanadi.

Jahon miqyosida qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Sifat menejmenti tamoyillarini joriy qilishning ta’sirchan usullari va uslublarini ishlab chiqish, sifat menejmentini modellarini ishlab chiqish va rivojlantirish, sifat menejmentini joriy etishni tashkiliy jihatlarini takomillashtirish, sifat menejmentini funksiyalarini modellashtirish, mahsulot sifatini zamonaviy talablariga javob berish, sifat menejmentini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish, sifat menejmenti samaradorligini baholash va aniqlash usullarini takomillashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va iqtisodiyotni boshqarishda pirovard natija sifatga borib taqalishini hisobga olgan holda, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Mamlakatda qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga katta ahamiyat berilgan»<sup>2</sup>. Bugungi kunda mamlakat eksport salohiyatini oshirishda, ayniqsa raqobatga chidamli mahsulotlarni ishlab chiqarishda sifatning o‘rni muhimdir. Sifat iqtisodiyotni barcha darajalarida foydalaniladigan zarur iqtisodiy vosita bo‘lib, iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarishda sifat menejmenti usulini joriy etish hozirgi davrning dolzarb zaruriy masalasi bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda barcha tarmoqlar qatorida qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga katta o‘rin berilgan. Hozirda ushbu tarmoqning mamlakat YaIMdagi ulushi 8 foizga to‘g‘ri kelmoqda, tarmoqda 200 dan ortiq turdagi qurilish materiallari ishlab chiqilmoqda, 37 ta sement zavodlari faoliyat olib bormoqda. Bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tizimi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishi jihatidan guruhlash, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish jarayonini majmuaviy boshqaruv tizimining yiriklashtirilgan tuzilmasini

<sup>1</sup><https://www.nice-consulting.ru/knowledge-base/articles/>.

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF№60-sonli Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>.

joriy etish asosida sifat menejmentini tashkil etish samaradorligini oshirish, xalqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini beruvchi sifat menejmentini joriy etish muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2018 yil 2 apreldagi PF-5392-son «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 5 fevraldagi PQ-4586-son «Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida», 2019 yil 20 sentabrdagi PQ-4464-son «Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018 yil 2 apreldagi PQ-3646-son «O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori, 2018 yil 14 noyabrdagi PQ-5577-son «Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sifat menejmentining fundamental mu'ammolari aksariyat hollarda g'arblik tadqiqotchi-olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, bunda AQSh, Yaponiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida sifat menejmentini joriy qilish masalalariga jiddiy g'oyalarni olib kirgan E.Deming, Dj.Djuran, K.Isikava, F.Krosbi, A.Feygenbaum, Dj.Xarrington, V.Shuxart, G.Niy, V.Lapidus, L.Zaks, X.Kume, D.Merdok, F.Teylor, G.Emerson, A.Fayol, F.Ford<sup>3</sup> va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy ishlarini ta'kidlab o'tish mumkin.

---

<sup>3</sup>Э.Деминг «Новая экономика» Издательство: Эксмо 2008; Дж.Джурман «Качество в истории цивилизации. Эволюция, тенденции и перспективы управления качеством». Издательство «Стандарты и качество» 2004; К.Исикава «Японские методы управления качеством» - М: «Экономика», 1988 г., 199 с.; Ф.Кросби «Принципы качества», «Сокращение издержек качества» (Cutting the Cost of Quality) (1966, 1987); А.Фейгенбаум «Всеобщий контроль качества» 1990.; Дж.Харрингтон «Пять столпов организационного совершенства» «Стандарты и качество» 2004.; В.Шухарт «Экономическое управление качеством промышленной продукции» 1931 г.; Г.Нив «Организация как система» М: Альпина Паблишер, 2019. – С. 179; В.Лapidus «Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией: монография (стереотипное издание). — Москва: Москва, 2020. - 381 с.»; Л.Зак Статистическое оценивание. (Теория и методы)» М;1976 г; Х.Куме «Статистические методы повышения качества» Издательство «Финансы и статистика» 1990 г. Д.Мердок «Советская историческая энциклопедия. В 16 томах. — М.: Советская энциклопедия. 1973—1982. Том 9. 1966»; Ф.Тейлор «Принципы научного менеджмента» монография 1911 г; Г.Эмерсон «Двенадцать принципов производительности»: Учебник / Г. Эмерсон. - Москва.: Экономика, 1992. – 200 с.; А.Файол «Общее промышленное управления» Москва.

Shuningdek, sifat menejmenti, uning tamoyillari, amaliyotga joriy qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlari kabi muammolar MDH mamlakatlari ilm-fan va ta'lim sohasining vakillari bo'lgan G.V.Versan, O.P.Gludkin, A.V.Glichev, A.D.Nikiforov, G.D.Krilov, V.V.Okrepilov<sup>4</sup> va boshqa tadqiqotchi-olimlarning ilmiy ishlari hamda monografiyalarida o'rganilgan.

O'zbekistonda umumiy menejment nazariyasi va amaliyotini tadqiq etgan olimlardan S.G'ulomov, Sh.Sharifxo'jaev, K.Abduraxmonov, Sh.Zaynutdinov, R.Nurimbetov, M.Ikromov, M.Qosimova, D.Raximova, Sh.Ergashxodjaeva, N.Q.Yo'ldoshov<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Yuqoridagi olimlarning ishlarida sifatni boshqarishning ko'p jihatlari o'rganilgan bo'lsada, ammo bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichida sifat menejmentini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tadqiq etish muammosi to'la o'rganilmagan. Shu nuqtai-nazardan sifat menejmentini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq etish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № A-2-47 «Quy Amudaryo mintaqasida qurilish sohasini boshqarishni rivojlantirish strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish» nomli amaliy loyiha (2017-y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda sifat menejmentini tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

sifat menejmentini iqtisodiy jarayon tarzidagi mazmuni va hozirgi zamon iqtisodiyotidagi ahamiyatini o'rganish;

sifat menejmentini tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

sifat menejmentini joriy etishning ilg'or xorijiy tajribasi va undan mahalliy korxonalarda foydalanish yo'nalishlari imkoniyatlarini tavsiflash;

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari tahlilini amalga oshirish;

qurilish korxonalarida menejmentning iqtisodiy vositalari tahlilini o'tkazish;

qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati rivojlanish holatini baholash usullari tahlil qilish;

---

<sup>4</sup>В.Г.Версан. «Система управления качеством». М.: Изд-во стандартов, 1988, 102 стр.; О.П.Глудкин. «Устройства и методы фотометрического контроля в технологии производства» ИС / О. П. Глудкин, А. Е. Густов. - М.: Радио и связь, 1981. - 112 с.; Гличев А. В. «Основы управления качеством продукции». - М.: «Стандарты и качество», 2001. - 424 с.; А.Д.Никифоров. «Процессы жизненного цикла продукции в машиностроении», [livelib.ru: https://www.livelib.ru/author/2851/latest-a-d-nikiforov](https://www.livelib.ru/author/2851/latest-a-d-nikiforov); Г.Д.Крылова. «Основы стандартизации, сертификации, метрологии»: Учебник для вузов - 3-е издание, перераб. и доп., М - ЮНИТИ-ДАНА, 2015, 671 стр.; Окрепилов В. В. «Международные стандарты в управлении качеством продукции» Архивная копия от 11 сентября 2016 на Wayback Machine. - Л.: ЛДНТП, 1990.;

<sup>5</sup> С.Фуломов «Ўзбекистон иқтисодиётининг ўсиш ва барқарор ривожланиш омиллари». Фан ва технология 2016 й., К.Абдурахмонов «Управление человеческими ресурсами организации». Учебник. ISBN 978-9943-19-563-9. Авторское право © Издательство «Фан» Академии наук Республики Узбекистан, 2020 г., Ш.Н. Зайнутдинов, И.Р. Нуриббетов. «Персонални бошқариш». Ўқув қўлланма. - Т.: «Митти юлдуз», 2007. Sh.Ergashxodjaeva, M.Qosimova «Marketing» darslik. Toshkent 2018., N.Q.Yuldoshev, F.Nazarova, M.Voxidova, SH.Nishonov «Xalqro menejment» o'quv qo'llanma, iqtisod-Moliya 2015.

sifat menejmentining iqtisodiy mexanizmini darajasini baholashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

sifat menejmentini samaradorligini aniqlash usullarini takomillashtirish yo‘llarini belgilash;

qurilish materiallari sanoatida sifat boshqaruvini baholashda prognozlash usullarini joriy etish imkoniyatlarini o‘rganish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi tarkibiga kiruvchi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida sifat menejmentini joriy etish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** qurilish materiallari korxonalarida sifat menejmentini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, texnologik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada zamonaviy menejment yondashuvlari, tizimli va kompleks yondashuv, tahliliy, SWOT-tahlil, regressiya, diskontlash, korrelyatsiyalash, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra «sifat menejmenti tizimi» tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari sanoatidagi hududiy resurslar taqsimotidan foydalanish orqali o‘zaro uyg‘unlashtirilgan «sifat piramidasi» tarkibiga kiruvchi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishi jihatidan guruhlash orqali takomillashtirilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini mehnatni muhofaza qilish ( $Mm=0,5$ ), ijtimoiy javobgarlik ( $Ij=0,15$ ), atrof-muhitni boshqarish ( $Ab=0,15$ ) va axborot xavfsizligi ( $Ax=0,2$ ) talablarini belgilaydigan standartlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rnatish orqali oshirish asoslangan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatini strategik rivojlantirish iqtisodiy mexanizmning tayanch tarkibiy qismlari xalqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, iste’molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta’minlash imkonini beruvchi sifat menejmentini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmenti tizimi va ISO standartlarini joriy qilish orqali sement ishlab chiqarish hajmining 2028 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar sifat menejmentini joriy qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida SMT ni joriy qilish samaradorligini ta’minlash bo‘yicha uslubiy materiallar va uchta ketma-ket bosqichdan iborat raqobatbardosh salohiyatni oshirish strategiyasining asosiy qoidalari shakllantirilgan;

tarmoq korxonalarining raqobatbardosh salohiyatini barqaror oshirishga qaratilgan uch bosqichdan iborat tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasini strategik rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmning tayanch tarkibiy qismlari shakllantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi statistik ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining statistik ma'lumotlari, shuningdek, «Qizilqumsement» AJ, «Bekobodsement» AJ va «Ohangaronsement» AJ, «Yangiyo'lsement» AJ ning buxgalteriya hisobotlaridan olinganligi, iqtisodiy tahlil ma'lumotlari nazariy-uslubiy jihatdan asoslanganligi, ilmiy natijalar xalqaro va milliy miqyosdagi anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilganligi, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati unda yoritilgan sifat menejmentini metodologik jihatlarini o'rganish va ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirishga oid qarashlar, sifat menejmentini joriy etishda iqtisodiy mexanizmini yangi modellarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifat menejmentini boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish va boshqa holatlarini tadbiq etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xalkaro tizimlar va standartlarni O'zbekiston korxonalarida qo'llash, qurilish materiallari ishlab chiqish korxonalarida foydalanish, tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarida talabalarga sifat menejmenti fanini o'qitish, bu borada maxsus mutaxassisliklarni ochish, darslik va o'quv ko'llanmalarni, masalalar, master-klasslar va kichik-slaydlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Innovatsion rivojlanish sharoitida qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «sifat menejmenti tizimi» tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari sanoatidagi hududiy resurslar taqsimotidan foydalanish orqali o'zaro uyg'unlashtirilgan «sifat piramidasi» tarkibiga kiruvchi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi jihatidan guruhlash orqali takomillashtirishga oid uslubiy materiallardan qurilish sanoatining ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan birgalikda respublikaning xom ashyo salohiyatini inobatga olgan holda yangi qurilish materiallari va ulardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishda foydalanilgan. («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari sanoatida mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etishda sifat menejmentidan foydalanilgan va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish imkoni yaratilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini mehnatni muhofaza qilish ( $Mm=0,5$ ), ijtimoiy javobgarlik ( $Ij=0,15$ ), atrof-muhitni boshqarish ( $Ab=0,15$ ) va axborot xavfsizligi ( $Ax=0,2$ ) talablarini belgilaydigan standartlar o'rtasidagi nisbatni o'rnatish orqali oshirish taklifi «Qizilqumsement» AJ amaliyotiga joriy qilingan

(«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mazkur korxonada ishlab chiqarish samaradorligini 5%ga oshirish imkoni yaratilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatini strategik rivojlantirish iqtisodiy mexanizmning tayanch tarkibiy qismlari xalqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, iste’molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta’minlash imkonini beruvchi sifat menejmentini joriy etish asosida takomillashtirish taklifi «Qizilqumsement» AJ amaliyotiga joriy qilingan («O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishchi kuchi samaradorligi 9%ga ortganligi ilmiy jihatdan asoslangan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmenti tizimi va ISO standartlarini joriy qilish orqali sement ishlab chiqarish hajmining 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari «Qizilqumsement» AJ amaliyotiga joriy qilingan («O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu prognoz natijalariga ko‘ra 2028 yilda qurilish materiallari ishlab chiqarishning 2022 yilga nisbatan o‘sish sur’ati 2,07%ni tashkil etishi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarini aprotatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida 2 ta maqola, xalqaro jurnallarda

1 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat bo‘lib, 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati, uning fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi asoslab berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, muammoning o‘rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tarkibi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentining nazariy-uslubiy asoslari**» nomli birinchi bobida sifat menejmenti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida qurilish materiallari korxonalarida sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirish yo‘llari, sifat menejmentini joriy etishning ilg‘or xorijiy tajribalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar yoritib berilgan.

Hozirgi globallashuv va raqobat kurashining kuchayib borish sharoitida menejment fanini tadqiq etishni rivojlantirish, uning metodologik jihatlarini ilmiy nuqtai-nazardan tahlil qilish, buning asosida yangi g'oya va fikrlarni umumlashtirish eng zaruriy holatlardan biri bo'lib qolmoqda. Sifat tushunchasining ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan beriladigan ifodasida sifat va xarajatlarni birlashtirish alohida o'rin egallaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulot sifatiga tegishli kamchiliklarni (brak, texnologiyadan og'ishlar) bartaraf etish uchun ma'lum miqdorda xarajatlar sarflanadi. Aytib o'tish joizki, hozirgi texnologiya eng rivojlangan davrda, hattoki, robotlardan foydalanishda ham braklar yuzaga chiqib turadi.

Tadqiqot ishini bajarish davomida uslubiy yondashuvga ko'ra «sifat menejmenti tizimi» tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari sanoatidagi hududiy resurslar taqsimotidan foydalanish orqali o'zaro uyg'unlashtirilgan «sifat piramidasi» tarkibiga kiruvchi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi jihatidan guruhlash orqali takomillashtirildi.

Sifat menejmenti umumiy menejment tizimi sifatida XX asrning 50-yillaridan boshlab fan darajasida shakllana boshladi. Uning asosiy mohiyati shundan iborat ediki, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sotib oluvchilarning ehtiyoj va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan. Chunki mahsulotning dizayni, xossalari, uzoq muddat xizmat qilishi, narxi va boshqa holatlar muhim xususiyatlar sifatida baholanardi.

Kompaniya va korxonalarda boshqarish vazifasini top (yuqori pog'onadagi) va oddiy (quyi pog'onadagi) menejerlar bajaradi. Amaliyotda bularni boshqaruv personalini deb yuritiladi. Bu ikki boshqaruv tizimini bog'liqligini, uzviyligini ta'minlash va samaradorligini oshirish birinchi navbatda korxonalaridagi boshqaruv personaliga bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayoni qanchalik samarali boshqarilsa, mahsulot sifati, uning raqobatbardoshligi ham shunchalik oshib boradi. Xulosa qilib aytganda, korxonalarni samarali boshqarish undagi boshqaruv xodimlarni mahorati va professionalligi bilan ifodalanadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida qurilish materiallari korxonalarida sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirish bugungi kunda mamlakatimizdagi qurilish materiallari sanoati uchun eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Aytib o'tish kerakki, Mamlakatimiz iqtisodiyotining bir qator tarmoqlaridagi ko'pchilik korxonalar va tashkilotlar ISO 9000 xalqaro standartlari negizida sifat menejmenti tizimi (SMT)ni joriy qilganlar. Bunda ayrim korxonalar boshqaruv jarayonlarining turli xil dastaklari – resurs menejmenti, energiya menejmenti, ekologik menejment, tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasi, loyihaviy boshqaruv metodlari kasblarni o'zlashtirishga harakat qilmoqdalar. Bularning barchasi qurilish materiallari sanoatiga ham xos bo'lib, bu qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati oshishiga bevosita daxldordir.


Qurilish materiallari sanoatidagi korxonalarda samarali menejment tizimini shakllantirish uchun sifat menejmenti tizimi – SMT asos bo'lib xizmat qilishi zarurdir. Buni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish uchun qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar ko'plab o'zaro bog'liqlikdagi faoliyat turlarini belgilab

olishi va ularni boshqarish jarayonlarini amalga oshirishi kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtda xorij amaliyotida SMT metodlari va dastaklarining resurs menejmenti tizimi bilan birgalikda qo'llash faol ravishda olib borilmoqda. O'z vaqtida aytib o'tish kerakki, har xil usul va metodlardan foydalanish korxonada mazkur tizimlar elementlari orasidagi yondashuvlarni tashkil etish jarayonini bir muncha murakkablashtiradi.

Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan ISO standartlarining oxirgi 9000 seriyadagi versiyasi sifatni tizimli boshqarishning yettita tamoyillariga tayanadi. Agarda SMT tamoyillarining har birini resurs menejmenti g'oyalari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, u holda bir tizimning boshqa bir tizimga ta'sir ko'rsatish dastaklarini qo'lga kiritish mumkin bo'ladi. O'zaro harakatlarni tashkil etishda tizimli yondashuvni qo'llash bir tizimdagi samaradorlik ortishi hisobiga ayrim tizimlarning ham yaxshilanishini kutishga imkon beradi<sup>6</sup>.

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tizimini shakllantirishda resurslar taqsimotidan samarali foydalanish, ularning o'zaro harakatlarini uyg'unlashtirish asosida quyidagi diagramma – o'ziga xos «sifat piramidasi» ko'rinishida tasvirlash mumkin (1-rasm).

Bu yerda: C1 - iste'molchiga yo'naltirilganlik tamoyili; C2 – yetakchilik tamoyili; C3 – kishilarning o'zaro aloqalari tamoyili; C4 – jarayonli yondashuv tamoyili; C5 – sifatni yaxshilash tamoyili; C6 – qarorlarni qabul qilish tamoyili; C7 – o'zaro munosabatlarni boshqarish tamoyili; C8 – raqobatbardoshlik tamoyili; C9 – istiqbollik tamoyili.




**1-rasm. Sifat piramidasi va korxonadagi SMT ning o'zaro aloqadorliklari<sup>7</sup>**

<sup>6</sup>Ефимов В.В. «Сборник методов поиска новых идей и решений управления качеством». - Ульяновск: УлГТУ, 2011. - С. 40-43.

<sup>7</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Uning asosida bosh muammo yotadi – bizning vaziyatimizda bu sifat menejmenti tamoyillarini yuzaga chiqarishdir. Bundan so‘ng esa mazkur muammoni hal qilish variantlari bo‘lgan uni o‘rab turuvchi yacheykalar yoki faoliyat yo‘nalishlari (sifat menejmenti tamoyillari)ni joylashtiramiz.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qurilish materiallari sanoati korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy qilish samaradorligiga erishish uchun SMT uchun zarur bo‘lgan jarayonlarni belgilash, bu jarayonlarning ketma-ketligi va o‘zaro aloqadorliklarini ta‘minlash, tizimning samarali amal qilishi uchun mezonlar va metodlarni aniqlash, tizim uchun kerakli resurslar va axborotlarning mavjudligini ta‘minlash, jarayonlarni nazorat qilish, o‘lchashi va tahlil qilish ishlarini olib borish, rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda jarayonlarni uzluksiz yaxshilab borish zarur deb hisoblanadi. Bu bilan qurilish materiallari sanoati korxonalarida sifat menejmentini joriy qilishning quyidagi afzalliklariga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi (2-rasm).



**2-rasm. Qurilish materiallari korxonasida SMT ni joriy qilish afzalliklari<sup>8</sup>**


Qurilish materiallari sanoati korxonalarida SMT ning yetarlicha samarali faoliyat ko‘rsatmayotganligining muhim sababi bo‘lib bunda biz ko‘rsatib o‘tayotgan to‘qqizta tamoyil (yondashuv)larning ichida kishilarning o‘zaro harakatlari kabi muhim tamoyillarning lozim darajada yuzaga chiqarilmasligini ko‘rsatish mumkin. Bitta korxonada doirasida ishchi-xodimlarning samarali hamda har tomonlama foydali o‘zaro harakatlarini yuzaga chiqarish uchun korxonada

<sup>8</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

rahbariyati yetakchilik rolini o'z zimmasiga olishi zarur. Bu borada g'arb va sharq mamlakatlaridagi korxonalarda mazkur masala borasidagi munosabatni olib qaraydigan bo'lsak, u holda rahbariyat va ishchi-xodimlarning o'zaro harakatlariga nisbatan bir-biriga butunlay qarama-qarshi bo'lgan yondashuvlarni ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlab o'tish kerakki, sifat bo'yicha xalqaro ISO 9000 seriyasidagi standartlar paydo bo'lishida yaponiyalik mutaxassislar bunga boshida juda salbiy munosabatda bo'ldilar va buni ular sifat menejmenti bo'yicha yaponcha uslubni buzib yuborishi bilan bog'lagan edilar. Lekin keyinchalik yaponiyalik sifat menejmenti yetakchilari o'z pozitsiyalarini o'zgartirdilar hamda yapon sifat menejmentining o'ziga xos amaliyotiga MS ISO 9000 standartini joriy qilish bo'yicha maxsus konsepsiyalarni ishlab chiqdilar. Hozirgi kunga kelib Yaponiya mazkur yo'nalishda berilgan sertifikatlar bo'yicha dunyoda oltinchi o'rinni egallaydi. Xalqaro ISO 9000 seriyasidagi sertifikatlarning tarqalish ko'lami ularga jahon iqtisodiyotida talab kuchliligi haqida guvohlik beradi va shuningdek bu iqtisodiyotning globallashuv jarayonlari qamrovini aks ettiradi.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, ISO 9000 standarti asosida sifat menejmentini malakali ravishda qo'llash korxonalariga bir qator ustunliklarni taqdim etadi (3-rasm).



**3-rasm. ISO 9000 seriyasi standartlari bo'yicha SMT ni joriy qilishdan kutiladigan afzalliklar<sup>9</sup>.**

Sifat menejmenti tizimini ISO 9000 xalqaro standartlari asosida joriy etish yo'li bilan xorijiy kompaniyalar kutadigan yuqoridagi afzalliklar ichki xususiyaga ega bo'lib, ular bir vaqtning o'zida kompaniyalarga nisbatan tashqi muhitda paydo bo'ladigan manfaatli xususiyatlarni ham namoyon qiladi va ular qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- kompaniyaning bozordagi ulushini kengaytirish va uni qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi iste'molchilarning qoniqqanlik darajasini oshirish;
- yuqori darajadagi ishonch ko'rsatkichlariga ega bo'lgan kompaniya nufuzini yuzaga keltirish;

<sup>9</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

- chet el bozorlariga chiqishdagi to'loqlarni kamaytirish;
- ta'minotchilar, sheriklar, davlat organlari vakillari bilan o'zaro ishonchli munosabatlarning o'rnatilishi;
- sifat menejmenti bo'yicha sertifikatga egalik majburiy bo'lib hisoblanadigan tenderlar, savdolar va shu kabilarda ishtirok etish imkoniyatlari va h.k.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati rivojlanishi va sifat menejmenti tizimining zamonaviy holati tahlili**» nomli ikkinchi bobida, O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari tahlili, qurilish korxonalarida sifat menejmentining iqtisodiy vositalaridan foydalanish jarayonlari tahlili, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati rivojlanish holatini baholash usullari hamda «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi hamda bu uyushma tarkibiga kiruvchi ayrim qurilish materiallari korxonalarining ishlab chiqarish hamda moliya-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini va ijtimoiy hayotini rivojlantirishda 2017 yildan boshlab yangi davr boshlandi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dastlabki 2017-2021 yillarga, keyinchalik esa 2022-2026 yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi kunda bu dasturda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish asosida mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari amalga oshirib kelinmoqda. Dasturning ahamiyatli joyi shundan iboratki, bunda mamlakatda yetishtiriladigan barcha xom-ashyolar, ayniqsa, qurilish materiallari uchun zarur bo'lgan xom-ashyo zahiralari o'zimizda qayta ishlanib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilayapti, yangidan-yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilayapti.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati iqtisodiyotni ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aytib o'tish lozimki, sobiq ittifoq davrida qurilish materiallari sanoati rivojlanmagan, qoloq soha edi. Agarda sement ishlab chiqarish sohasida faqat 3 ta korxonalar faoliyat olib borardi. Hozirda esa mamlakatimizda 37 ta sement korxonalari mavjud. Umuman olganda endilikda qurilish materiallari bilan O'zbekiston ehtiyojini 80 foizni ta'minlanmoqda. Mamlakatda hozirda 12,5 mingdan ortiq qurilish materiallari korxonalari ishlab turibdi. Qurilish materiallarini mamlakat YaIM ulushi 9 foizni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasiga investitsiyalarni kiritish, import o'rinini bosadigan sifatli tovarlarni ishlab chiqarish asosiy strategik vazifadir. O'zbekiston qurilish xom-ashyoga boy davlat, shu sababli sohani mahalliyashtirish katta foyda manbai hisoblanadi. Mahalliyashtirish siyosatini yana bir jihati o'zimizdagi xomashyolardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni past narxda sotish mumkin. Bu esa aholini qurilish materiallarga bo'lgan ehtiyojini oshiradi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati iqtisodiyotni ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aytib o'tish lozimki, mustaqillikning dastlabki yillarida qurilish materiallari sanoati rivojlanmagan, qoloq soha edi. Masalan, sement ishlab chiqarish sohasida faqat 3 ta korxonalar faoliyat olib borardi. Hozirda esa mamlakatimizda 37 sement korxonalari mavjud va ularning ayrimlarining 2018-2023 yillar mobaynidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirib o'tildi (1-jadval).

**O‘zbekistonda 2018-2023 yillarda sement ishlab chiqarish  
ko‘rsatkichlari<sup>10</sup>**

№	Asosiy sement zavodlari	O‘lchov birligi	Yillar					2023 yilning 2018 yilga nisbati, %
			2018	2019	2020	2021	2023	
1	«Qizilqumsement» AJ	ming t	3643	3949	4167	4476	4851,5	133,2
2	«Ohangaronsement» AJ	ming t	1993	2625	3098	3608	3956,0	198,5
3	«Bekobodsement» AJ	ming t	1204	1501	1709,8	1987,5	2234,0	185,5
4	«Yangiyulsement» AJ	ming t	1134,3	1534,3	1765,8	1976,4	2015,3	177,6
5	Jizzax sement zavodi	ming t	810	830,4	860,9	907,4	1121,0	138,4
6	«Farg‘onasement» MChJ	ming t	110,4	112,4	117,8	118	145,0	131,4
7	«Kezer» MChJ	ming t	11,2	13,5	14	14,4	25,6	2,3 m
8	«Singlida» KK	ming t	55,5	59,2	60,8	65,9	78,9	148,1
9	«Everest metall favorit» MChJ	ming t	10,6	11,8	12,5	15,6	19,7	185,9
10	«Buyuk» xususiy korxonasi	ming t	21,3	29,4	30,7	33,1	43,6	139,1
11	«Turon ekosement grupp» MChJ	ming t	75,5	79,5	83,9	90,6	105,0	139,1
12	«Farxadshifer» MChJ	ming t	11,6	18,3	20,6	22,3	31,8	2,7 m
	<b>JAMI</b>	<b>ming t</b>	<b>9080</b>	<b>10764</b>	<b>11237</b>	<b>12649</b>	<b>14627</b>	<b>161</b>

Yuqorida keltirilgan 2-jadvaldan ko‘rish mumkinki, qurilishning asosiy «ozuqasi» bo‘lgan sement ishlab chiqarish sohasida Navoiy viloyatida joylashgan «Qizilqumsement» AJ yetakchi korxonaga bo‘lib hisoblanadi. Mazkur korxonada sement ishlab chiqarish hajmi va uning butun mamlakatda sement ishlab chiqarishdagi ulushi so‘nggi besh yil davomida muttasil o‘sib borish tendensiyasiga egadir. Bu esa mamlakatimiz qurilish materiallari sanoati korxonalarida SMT ni joriy qilishda mazkur korxonaning o‘z ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va modiy-texnik hamda texnologik resurslari jihatidan «flagman korxonaga» maqomiga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirda qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmi respublikada 15,0 trln so‘mdan ortiq bo‘lib, uni sanoatdagi ulushi 6,0 foizni tashkil etmoqda. Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarni sement bo‘yicha 92,2%, oyna-100%, gipsokarton-98% yetgan bo‘lsa, shu bilan birga ba’zi qurilish materiallarni ishlab chiqarish, ularni past quvvatlari past darajada bo‘lib qolmoqda. Masalan, shifer - 25,2%, DSP -

<sup>10</sup> «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

33%, pishiq g'isht - 74 % to'g'ri kelmoqda. Demak, bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqarish quvvatlardan to'la va samarali foydalanish deyarli ishlab chiqarish zaxiralariga imkon qolmaydi. Qo'yida keltirilgan 2-jadvalda «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasida ishlab chiqarish quvvatlardan foydalanish holati ko'rsatilgan.

**2-jadval**

**«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasida 2018-2023 yillarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati (foizda)<sup>11</sup>**

<b>Korxonalaridagi jihozlar</b>	<b>2018 yil</b>	<b>2019 yil</b>	<b>2020 yil</b>	<b>2021 yil</b>	<b>2023 yil</b>	<b>2023 yilning 2018 yildan farqi</b>
Qurilmalar	69,2	75,6	71,3	76,4	77,4	8,2
Mashinalar	74,2	71,2	80,5	81,3	82,1	7,9
Mexanizmlar	74,5	75,9	76,3	82,0	84,3	9,8
Bino-inshootlar	87,9	88,0	82,3	89,6	90,9	3

2-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, yani sement ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zlarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yildan yilga oshirib borishmoqda. Jumladan, korxonalaridagi qurilmalardan foydalanish holati 2018 yilda 69,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda 8,2 foizga kamayib 77,4 foizni tashkil qilgan. Mavjud mashinalardan foydalanish holati 2018 yilda 74,2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 7,9 foizga oshib 82,1 foizni tashkil qilgan. Boshqa ko'rsatkichlar ham 2018 yilga nisbatan, 2023 yilda oshib brogan, shu bilan bir qatorda korxonalarda aynan SMT ga e'tibor qaratilmoqda.

Qurilish materiallarini ishlab chiqish va iste'mol qilish monitoringi shuni ko'rsatmoqdaki, ayniqsa sement mahsulotni ishlab chiqarishda yaxshi natijalarga erishilgan. Bu sementning qurilishdagi «asosiy ozuqa» ekanligi va u startegik ahamiyatiga egaligi bilan talqin qilinadi. 2000-2022 yillarda sementga bo'lgan ehtiyoj dunyo bo'ylab o'rtacha 2 marotaba oshgan. Jumladan, Xitoyda - 3,5, Turkiyada - 1,74, Eronda - 1,84 marotaba oshgan. 2018 yilda jahonda jon boshiga sement iste'mol qilish 538 kg ni tashkil qilgan. Shuningdek, bu ko'rsatkich Xitoyda - 1681 kg, Janubiy Koreyada - 1098 kg, Turkiyada - 998 kg, Rossiyada - 372 kg, O'zbekistonda esa 280 kg ga teng bo'lgan. Mazkur ma'lumotlar sement sanoatini kelajakda yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda so'nggi yillarda sement ishlab chiqarish hajmi tez sur'atlar bilan oshib bormoqda.

Amaliy jihatdan iqtisodiy ko'rsatkichlar korxonani umumiy faoliyatini baholashda qo'llanilsa, vositalar esa boshqaruv faoliyatni o'rganishda foydalaniladi. Umuman olganda iqtisodiy ko'rsatkichlar va boshqaruv vositalari bir maqsadni ko'zlaydi, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tadqiqotimizda asosan boshqarish vositalarini to'rt turini tahlil qilish va ulardan ilmiy va amaliy xulosalarni ishlab chiqishga xarakat

<sup>11</sup> «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

qilinadi. Bularga foyda tannarx, baho va rentabellik boshqarish vositalar kichik tizimi sifatida olindi.

Ushbu vositalar sifat menejmenti nazariyasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga aytish lozimki ushbu vositalar boshqarish samaradorligini hisoblashda keng foydalaniladi.

Xorij va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda foydani boshqarish vositasi sifatida o'rganilib bir qancha uslubiy ishlanmalar yaratilgan. Ularni hisoblash usullari ishlab chiqilgan. Lekin hozirgi sharoitda ularni takomillashtirishni hayotni o'zi taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqot ishida ularni tahliliy tomonlarini takomillashtirib, tahliliy uslubiyatni yaratishga harakat qildik.

Hozirgi sharoitda korxonalarda sof daromad tushunchasi ishlatiladi. Uni sof foydadan farqi shundan iboratki, bunda sof daromad mahsulotni sotish natijasida tushgan pul bo'lib u mahsulotni ulgurji baho bilan haqiqiy tannarx farqini ifodalaydi. Korxonalar yangi bozor omillarini hisobga olgan holda foydani ko'paytirishga harakat qilishi kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab sement zavodlari ishlayotgan. Chunki sement yuqori material sig'imiga asoslangan mahsulot. Shu sababli unda mehnat sig'imi kamroq bo'ladi. Demak foyda ko'proq bo'ladi. Bundan tashqari sement ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymat darajasi past bo'lgani sababli qo'shilgan qiymat solig'i olinmaydi. Toshkent viloyatida joylashgan sement zavodlarini foyda va sof foyda dinamikasini oshib borishi tashkil etilgan (3-jadvalda).

### 3-jadval

#### Toshkent viloyatida 2018-2023 yillarda sement zavodlarining foyda dinamikasi<sup>12</sup>

Zavodlar nomi	O'lchov birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2023 yil	2023 yilning 2018 yilga nisbati	
							Farqi	%
<b>Bekobodsement AJ:</b>								
1.Ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so'm	7,65	8,03	4,8	9,3	10,2	2,55	133,3
2.Mahsulot tannarxi	mlrd. so'm	3,78	4,8	2,3	6,3	6,9	3,12	182,5
3.Foyda	mlrd. so'm	3,87	3,23	0,7	3,0	3,3	0,57	85,2
4.Sof foyda	mlrd. so'm	1,25	1,03	0,25	1,5	1,7	0,45	136
<b>Ohangaronsement AJ:</b>								
1.Ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so'm	11,5	12,1	5,6	10,3	11,4	0,1	99,1
2.Mahsulot tannarxi	mlrd. so'm	7,78	7,8	3,1	6,9	7,8	0,02	100,2
3.Foyda	mlrd. so'm	3,72	4,3	2,5	3,4	3,6	0,12	96,7
4.Sof foyda	mlrd. so'm	1,6	1,9	2,1	2,5	2,6	1	162,5
<b>Yangiyo'lsement AJ</b>								
1.Ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so'm	6,5	6,9	4,02	7,5	8,6	2,1	132,3
2.Mahsulot tannarxi	mlrd. so'm	3,86	4,7	3,5	5,2	5,6	1,74	145,0
3.Foyda	mlrd. so'm	2,64	2,2	0,52	2,3	3,0	0,36	113,7
4.Sof foyda	mlrd. so'm	1,2	1,1	0,44	0,9	1,7	0,5	141,6

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, 2018 yilga nisbatan 2023 yilda sement ishlab chiqarish hajmi «Bekobodsement» AJ 133,3 foizga va

<sup>12</sup> «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

«Yangiyo‘lsement» AJ esa 132,3 foizga oshgan bo‘lsa, «Ohangaronsement» AJ da esa 0,9 foizga kamaygan. Sof foyda ko‘rish ko‘rsatkichlariga ko‘ra «Yangiyo‘lsement» Ajda yuqori, ya’ni 141,6 foizga oshgan.

Tadqiqot davomida sement ishlab chiqaruvchi yana bir korxonada «Qizilqumsement» AJ faoliyati ham tahlil qilindi. Respublikada sement ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha va faoliyatida SMT joriy etish holati bo‘yicha ham «Qizilqumsement» AJ eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega. «Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini mehnatni muhofaza qilish ( $Mm=0,5$ ), ijtimoiy javobgarlik ( $Ij=0,15$ ), atrof-muhitni boshqarish ( $Ab=0,15$ ) va axborot xavfsizligi ( $Ax=0,2$ ) talablarini belgilaydigan standartlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rnatish orqali qolgan korxonalardan ustunlik qiladi.

Yuqorida aniqlangan ko‘rsatkichlarning aniqlash bo‘yicha hisobi dissertatsiya ishining ilovalar qismida keltirilgan. Bundan tashqari aynan «Qizilqumsement» AJ ning 2018-2023 yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratamiz (4-jadval).

#### 4-jadval

#### «Qizilqumsement» AJ ning 2018-2023 yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari<sup>13</sup>

Ko‘rsatkichlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2023 yil	2023 y dan 2018 y ning farqi (+/-)
Mahsulot sotishdan tushgan tushum (mln sum)	1121230,9	1660024,2	1682700,2	2220961,6	1906815,2	785584,3
Sotilgan mahsulot tannarxi (mln sum)	642075,3	787733,1	1023586,3	1233672,9	1196693,7	554618,4
Asosiy vositalar (mln sum)	936725,7	1399141,3	1510363,8	1623279,0	1713681,9	776956,2
Asosiy vositalarning eskirishi (mln sum)	497686,9	790571,2	921087,9	1068544,1	1155392,7	657705,8
Eksport (mln doll)	19,8	6,04	5,19	23,95	17,5	-2,3
Sof foyda (mln sum)	49793,8	338771,8	274491,2	589995,4	228343,5	178549,7

